

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINING AHAMIYATI

*Sulaymonova Moxigul Nodirovna*  
*Samarqand viloyati Payariq tumani*  
*1-sonli umumta'lim maktabining*  
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar;** boshlang'ich sinflar, ona tili o'qitish metodikasi, faollik, mustaqillik prinsplari, ijodiy tafakkurni o'stirish, matn yaratish.

Ma'lumki, jam'iyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordam idagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani mustahkamlash va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Ona tili - har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsplari hisoblanadi. Bu prinsplar har fanda o'ziga xos tadqiq etiladi. Biz quyida ona tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan prinsplar xususida so'z yuritimiz.

Tizimlilik va izchillik prinspi. O'zbek tili o'qitishda tizimlilik va izchillik prinsipi muhim o'rin tutadi. Til fanining bo'limlarini bir tartibda o'rganish shu prinspga mos tushadi. Ona tili fanini o'rgatishda dastlab fonetika, leksika haqida, shundan so'ng so'z yasash, so'z tarkibi, morfologiya va sintaksis haqida ma'lumot beriladi. Bu esa yuqoridagi prinspga amal qilinganligini bildiradi. Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash ham muhimdir. Buning uchun fonetika va grammatikadan har bir mavzu orfografiya yoki punktuatsiya bilan, orfoepiya yoki lug'at bilan bog'liq holda o'tilishi lozim. Bu prinspni amalga oshirish uchun grammatik qoidalarga mos

misollarni jonli nutqdan olish, qoidalarni mustahkamlashda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanish zarur bo'ladi.

Ona tili o'qitishda onglilik ham muhim o'rin egallaydi. Onglilik prinsipi ta'rif yoki qoidaning o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga tirishmoqni talab etadi:

- O'qitishda ongli verbal-kognitiv ta'limga (OVKT) asoslanish
- Til materiali va ta'lim oluvchilarning yosh psixologiyasi mutanosibligiga e'tibor berish.
- O'quvchilarda mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini mustahkamlash
- Darsni ma'lum bir tizimda olib borish
- Mavzulararo bog'lanishga e'tibor berish
- Nutqiy malakalarni mustahkamlash va til sezgirligini oshirish Mustaqillik va faollik prinsipi.

Mustaqillik va faollik orqali o'quvchi ta'limining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratilsa, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo'ladi. Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish qo'yilgan muammo, savol va topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.

Buning uchun o'quvchi har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirib borishi, ravon va aniq so'zlash malakasini egallashi darkor.

Ilmiylik va tushunarlik prinsipi.

Ilmiylik prinsipi o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etadi. Tushunarlik prinsipi esa o'quv predmetini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqozo etadi. Bu ikki prinsipi bir-birini to'ldiradi. Bu prinsiplarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

- ✓ til sathlarini o'zaro bog'liqlikda o'rgatish;
- ✓ o'qituvchining fan yangiliklaridan xabardor bo'lib turishi kerak;
- ✓ o'qituvchi butun fikrini ilmga asoslanib bayon etishi lozim;
- ✓ til va nutqni farqlab o'qitishning, ixcham va talaffuz meyorlariga mos bo'lishi;
- ✓ ayrim o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish. Ko'rsatmalilik prinsipi.

Ko'rsatmalilik o'quvchilar bilimini oshirish va o'qituvchining mehnatini samarali qilish vositalaridan biridir.

Ko'rgazmali quoldan yangi bilim berishda ham, o'tilganlarini qaytarish va ayrim faktlarni izohlashda ham foydalanish mumkin. Ko'rgazma sifatida turli jadvallardan, boshqotirmalardan, fikrlash jarayonini tezlashtirishga qaratilgan o'quv topshiriqlaridan, kompyuterda ishlashga yo'naltirilgan dasturlardan, audiyo-video o'quv dasturlaridan foydalanish mumkin.

O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari 1. Til o'qitishda tabiiylikka rioya qilish.

Maktabda til o'qitish maktabgacha tilni o'zlashtirish jarayonining tabiiy davomi bo'lishi kerak. Tilni o'qitishda tabiiylik prinsipiga amal qilishda o'quvchilarning boshlang'ich sinfda olgan bilimlarini hisobga olish, til materiallarini jonli nutq tarkibida o'rgatishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish.

Og'zaki va yozma nutqni o'zaro chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, ular orfoepik va orfografik qoidalarining farqlarini ongli ajratadigan bo'ladi. Bunday o'qitish o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi. Bu prinsip quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: tovushni harf bilan chog'ishtirish, punktuatsiyani ohang bilan chog'ishtirish, og'zaki mashqdan yozma mashqqa qarab borish.

O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirib borish prinsipi.

Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi. Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Til bo'limlari va ular orqali ifodalangan ma'nolarni ajratish.

O'quvchilar tilni yaxshi egallashlari uchun uning fonetikasini puxta bilishlari lozim. Fonetik qoidalar esa talaffuz meyorlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Fonetikani yaxshi o'rgatish imlo, leksikologiya va grammatikani yaxshi o'rgatishga ham yordam beradi.

O'quvchilarda yoshlikdan "til sezgirligi" tuyg'usini shakllantirish.

Bu qobiliyat tufayli o'quvchilar har bir so'z va shaklni o'zidagi mavjud bilim va malakalar yordamida tez uqib, ularni amaliy nutqqa tadbiq etadilar.

O'quvchilarning orfografiya va punktuatsiyaga doir bilim-malakalarini oshirish uchun og'zaki va yozma nutq doimo qiyosiy ravishda o'rganilishi kerak. Masalan, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish uchun oquvchi gapning sintaktik qurilishini yaxshi bilishdan tashqari nutqning ohang tomonini ham fahmlay olishi zarur.

Og'zaki nutq bilan yozma nutq orasidagi munosabatni to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarning yozuv malakalari ham takomillashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997-y 29- avgust.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
3. B. M a'qulova, D. Nasriddinova. Kitobim — oftobim (1-sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi" N M IU , 2008.
4. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N . Bikboyeva. — T.: 1994
5. J. G ' . Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: „O'qituvchi", 2004.